

**ME'DA OSTI BEZINING MORFOFUNKSIONAL HOLATLARIGA ENERGETIK
ICHIMLIKLER TA'SIRI**

Ilyasov A. S

Navoiy innovatsiya universiteti

Davronova M. Sh

Buxoro davlat tibbiyat instituti

Avezov A.U

Aytimova G.Yu

Toshkent tibbiyat akademiyasi Urganch filiali3

Hozirgi kunda energetik ichimliklarining parenximatoz a'zolar to'qimalariga toksik ta'sirida morfofunktional o'zgarishlari haqida ma'lumotlar kam. Kalamushlar postanal ontogenetika davrida etil spirti va energetik ichimliklarni alohida va hamkor ta'sirida morfologik o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar deyarli keltirilmagan.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, jahon adabiyotida energetik ichimliklar ta'sirida parenximatoz a

A'zolarning morfofunktional o'zgarishlari fonida yuzaga keladigan patomorfologik jarayonlarni tashxislash, taxmin qilishning optimal usullarini ishlab chiqish hamda yosh erkaklarda jismoniy holatga va faoliyatga ta'sir qiluvchi energetik mahsulotlar ta'sirini o'rGANISH so'nggi yillarda dolzarb bo'lib kolmoqda.

Olingen ma'lumotlar bo'yicha energetik ichimliklar iste'moli keskin oshganligi ma'lum bo'ldi. Iste'mol qilinayotgan energetik ichimliklar, ayniqsa o'smirlar tomonidan doimiy ravishda haddan ziyod ko'p iste'mol qilinishi o'smirlarda uyquning yomonlashishiga, o'zlashtirishning pasayishiga, tez-tez bosh og'rishi va depressiv belgilarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi.

Energetik ichimlikning klassik tarkibini o'rganadigan bo'lsak, asosan suv, shakar, turli miqdordagi kofein, ba'zi biologik faol birikmalar tashkil qiladi.

Farmatsevtika hamda energetik ichimliklar sanoatida kofein keng qo'llaniladigan fitokimiyoviy modda hisoblanadi. Kofein asosan markaziy ta'sir qiluvchi stimulyator bo'lib, organizmda mavjud bo'lgan adenozin retseptorlariga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Energetik ichimliklar tarkibida mavjud bo'lgan glyukoza komponenti odatda fiziologik jihatdan energiya uchun zarur bo'lgan substratni ta'minlaydi, hamda avtonom asab tizimiga ta'siri bilan ham bog'liq bo'ladi. Energetik ichimliklarni su'iiste'mol qilgandan keyin yurak urishlari tezlashganligi va qon bosimining sezilarli darajada oshganligi kuzatildi.

Energetik ichimliklarining yana bir muhim tarkibiy qismi oltingugurt saqlamaydigan aminokislota-taurindir. U mutazam iste'mol qilinadigan muvo-zanatlangan dietada yetarli miqdorda mavjud bo'ladi va u yurak aritmialari va yurak ritmining buzilishiga olib kelishi mumkin. Taurin gomeostazining buzilishi inson miyasi, yuragi va suyak tizimiga potentsial zararli ta'sirlar bilan bog'liqligini aniqlagan.



Nevrologik nuqsonlar kayfiyatning o'zgarishi kabi axamiyatsiz bo'lishi mumkin va hatti-harakatlarning buzilishi epilepsiya kabi murakkab bo'lishi ham mumkin va tanadagi taurinning nomutanosibligi bilan bog'liq autizmni kuzatgan. Tananing turli a'zolari, shu jumladan oshqozon osti bezi oksidlovchi stressdan zararlanishi to'g'risida ma'lumot bergen.

Energetik ichimliklardagi har qanday yallig'lanish vositachisiga a'zoning uzoq vaqt ta'siri uning parenximasini tomonidan ushlab tura olmaydi va shuning uchun fibrozga olib kelishi mumkinligini izoxlaganlar.

Reaktiv kislород turlaridan kelib chiqqan erkin radikallarning zararlanishi apoptozning aniq belgilarini ko'rsatadi, shu jumladan hujayra hajmining pasayishi va hujayra membranasining shishishi, oksidlovchi stress bilan bog'liq zararni ko'rsatadi.

Ba'zi tadqiqtolar shuni ko'rsatdiki, oshqozon osti bezining morfofunksional buzilishini kofeinli ichimliklarni iste'mol qilgandan keyin ham kuzatilgan va ayniqsa funksional buzilishlarni a'zoning ekzokrin va endokrin qismlari zararlanishi kuzatilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi yosh avlod tomonidan kofeinli ichimliklar iste'mol qilish miqdori ortib borayotganligi sababli, tananing turli a'zolarga nojo'ya ta'sir ko'rsatishini aniqlash zarurati paydo buladi.